

**“DEVONU LUG‘OT IT TURK” ASARI NASHRI VA
UNDAGI KITOBATCHILIKKA OID TERMINLAR XUSUSIDA**

Ibrohim Yo‘ldoshev
O‘zbekistan davlat san’at va madaniyat instituti
filologiya fanlari doktori, professor
Toshkent,
ibrokhimiyuldashev1957@mail.com
Orcid:0009-0002-7982-2324

Hulosa

Maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarining nashr etilishi bilan bog‘liq qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, turkiy kitobatchilik terminologiyasining shakllanishida Mahmud Koshg‘ariyning ushbu asari bebaho ahamiyatga egaligi izohlangan. “Devonu lug‘otit turk” asari bilan tanishganimizda asarda X-XI asrlarga qadar turkiy tillarda qo‘llangan turli sohalarga oid so‘zlar haqida qimmatli ma‘lumotlarni olamiz. Maqolada qadimiy madaniyat namunasi sifatida kitobatchilikka tegishli terminlardan bahs yuritiladi. Birgina bitik termini va uning etimologiyasi borasida ham tahlillar berilgan. Bitik termini etimologiyasi haqida olimlar turlicha fikr bildirgan bo‘lsa, maqolada bitik terminining sof turkiy so‘z ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi. “Devon”da izohlangan yana bir nechta terminlar haqida tahlillar berilgan. Mazkur terminlarning o‘tmishda mavjudligi bu hududlarda madaniy hayotning mevasi bo‘lgan kitobatchilik ishining qadimgi sohalaridan biri bo‘lganligini isbotlaydi. Zaruriy holatlarda “Devon”da qo‘llangan kitobatchilikka oid ayrim terminlarning Yusuf Xos Hojib, Burxonuddin Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlar asarlarida qo‘llanishiga oid muqoyasaviy tahlillar berilgan. Olib borilgan ilmiy izlanishlardan xulosa shuki, Mahmud Koshg‘ariy qalamiga mansub “Devonu lug‘otit turk” asarining qiymati bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Kalit so‘zlar: nashr, kitobatchilik, termin, bitik, etimologiya, asar, qadimgi turkiy til.

**PUBLICATION OF THE WORK "CODES OF TURKISH WORDS" AND
ABOUT THE BOOK BUSINESS TERMS**

Ibrahim Yoldoshev
Doctor of philological sciences, professor
Uzbekistan State Institute of Art and Culture
Tashkent, Uzbekistan

Summary

The was written provides valuable information about the publication of Mahmud Koshgari's work "Devonu lugotit turk" in Uzbekistan. Also, the invaluable importance of this work of Mahmud Koshgari in the formation of the Turkish literature terminology is explained. When we get acquainted with the work "Devonu lugotit turk", we get valuable information about the words used in the Turkish languages in X-XI centuries. The article searches the terms, which related to literature as an example of ancient culture. Analyzes of the term single script and its etymology are also given. Scholars have expressed different opinions about the etymology of the term “ bitik”, but the article scientifically supports the fact, that the term “bitik” is a purely Turkic word. Several other terms explained in "Devon" are analyzed. The existence of these terms in the past proves that bookmaking, which is the fruit of cultural life in these regions, was one of the ancient areas of development. In necessary cases, comparative analyzes of the use of some literary terms used in "Devon" in the works of great thinkers such as Yusuf Khos Hajib, Burkhanuddin Rabguzi, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur are given. The conclusion of the conducted scientific research is that the value of the work "Devonu lughotit turk" written by Mahmud Koshgari has not lost its importance even today.

Key words: publication, bibliography, term, script, etymology, work, ancient Turkic language.

ОБ ИЗДАНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «СВОД ТЮРКСКИХ СЛОВ» И
О ТЕРМИНАХ, ОТНОСЯЩИХСЯ К КНИЖНОМУ ДЕЛУ

Иброхим Юлдашев
Доктор филологических наук, профессор
Государственный институт искусств и культуры Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

Резюме

В данной статье даны ценные сведения, связанные с изданием в Узбекистане произведения «Свод тюркских слов» Махмуда Кошгари. Отмечено, что данное произведение Махмуда Кашгари имело важное значение в формировании терминологии тюркского книгоиздания. При ознакомлении с произведением «Свод тюркских слов» можно получить ценные сведения о словах, относящихся к различным отраслям и применению в произведении, в тюркских языках до X-XI веков. В статье ведется речь о терминах, относящихся к книгоизданию как уникальный образец древней культуры. Также сделан анализ термина битик и этимологии этого слово. Этимология термина битик были высказаны учеными различные мнения, но в данной статье научно доказан тот факт, что этот термин является подлинным тюркским словом. В статье также проводятся сведения о нескольких терминах, разъясняемые в «Свод тюркских слов». Наличие подобных терминов в древности доказывает, что книжное дело было плодом культурной жизни и одним из отраслей древней цивилизации в данных регионах. В необходимых случаях в статье даются сопоставительные анализы об употреблении в произведении великих мыслителей Юсуф Хос Ходжиб, Бурханиддин Рабгузи, Алишер Навои, Захриддин Мухаммад Бобур данных терминов, относящиеся к книгоизданию и приводимые в «Свод тюркских слов». Как итог проведенного научного изыскания необходимо отметить, что и на сегодняшний день не потерял своего значения и является ценным источником произведение Махмуда Кошгари «Свод тюркских слов».

Ключевые слова: издание, книгоиздание, термин, письмена, этимология, произведение, древнетюркский язык, битик.

Dolzarblik. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining chop etilish tarixi hamda asarda qo'llangan kitobatchilikka oid terminlarning tahlili turkiy kitobatchilik madaniyati ildizlari uzoq tarixga egaligini asoslaydi va bu turkologiyada o'ta dolzarbdir.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari asosiy tadqiqot ob'yekti sifatida tanlab olingan. Unda ushbu asarning O'zbekistonda nashr etilishi bilan bog'liq faktlar, shuningdek, asarda keltirilgan va X-XI asrlarda O'rta Osiyo hududlarida yashagan turkiy xalqlar tilida muomalada bo'lgan kitobatchilikka oid terminlar tahlilga tortilgan.

Metod. Maqale tarixiy, tavsifiy metodlar esasında yozilmishtir.

Kirish. Turkiy xalqlar tarixini o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning 950 yil avval yaratilgan "Devonu lug'otit turk" asarining o'rni beqiyosdir. Ushbu asarning dunyoga kelganiga ming yilga yaqin davr o'tsa-da, hanuz dunyo miqyosida keng o'rganilmoqda. Qardosh Ozarbayjonda Mahmud Qoshg'ariy nomidagi baynalmilal ilmiy jurnalning tashkil etilishini bu insonga bo'lgan hurmat va e'tirofning namunasi sifatida ko'rsatish mumkin.

Ma'lumki, "Devonu lug'otit turk" XI asrning ikkinchi yarmida yozilgan. Asarni adib Koshg'ariy butun O'rta Osiyoni kezib, bu hududda yashovchi xalqlar hayotini, ularning tilini mukammal o'rgangan, tahlil qilgan. O'z tadqiqotlari, tahlillari natijasida "Devonu lug'otit turk" asari dunyoga keldi. Ushbu ilmiy-tahliliy asarni jahon miqyosida ilk bor yaratilgan tilshunoslikning qiyosiy-tahliliy sohasidagi manba deb atash mumkin. Koshg'ariy o'z asarini arab tilida yozadi, turkiy til grammatikasini arab tilida tushuntiradi.

O'zbekistonda "Devonu lug'otit turk"ning dastlabki namuna nashri professor Abdurauf Fitrat tomonidan 1927-1928-yillarda chop etilgan (1,10-11). Uning o'zbek tilidagi mukammal nashri uch jilddan iborat bo'lgan holda 1960-1964-yillarda nash etilgan. Asarning tarjimoni va nashrga tayyorlovchisi filologiya fanlari doktori, professor Solih Mutallibov bo'lgan. Tahrir hay'ati filologiya fanlari doktorlari, professorlar: A.K.Borovkov, O.Usmonov, G'.Abdurahmonov,

U.Karimov, A.M.Shcherbaklardan iborat bo‘lgan. Professor S.Mutallibov birinchi jild uchun yozilgan kirish so‘zida asar muallifi va asar haqida juda qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. U yozadi: “O‘rta Osiyo xalqlarining atoqli farzandi Mahmud Koshg‘ariy XI asrda yashab ijod etdi. Uning bebaho “Devonu lug‘otit turk” asari u davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi. Uning asari o‘z davri uchun benihoya katta voqelik bo‘lgani kabi, turkologiya fani sohasida ham birihchi namuna bo‘ldi. Mahmud Koshg‘ariy turkologiya fanining dastlabki ustodi bo‘ldi, turkologiyaning maxsus fan sifatida rivojlanishiga asos soldi. Shuning uchun ham u allaqachon jahon miqyosida buyuk olim sifatida tanildi. Turkologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, arxeologlar hanuz unga ulug‘ usroz sifatida chuqur hurmat bilan qarab yondashdilar, unga asoslanadilar.

Mahmud Koshg‘ariyning to‘liq ismi: Mahmud Ibnulhusayn ibn Muhammadil Koshg‘ariydir. Uning bobosi Koshg‘arda tug‘ilgan bo‘lsa ham, asosan Balasog‘unda hayot keshirdi. Uning tug‘ilgan yili aniq bo‘lmasa ham, devon yozilgan vaqtlarda ancha yoshlarga borgani aniqdir. Chunki devon ustida u uzoq yillar ishladi, dastlab u ko‘p yillar yurtma-yurt kezib material to‘pladi, Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta territoriyani birma-bir kezib chiqdi va bu katta territoriyada yashagan urug‘lar, qabilalar, xalqlarning o‘zini, ularning kasb-korlarini, turar joylarini, nufuzlarini aniqladi va ularning tillarini sinchiklab o‘rgandi. Natijada u shuncha katta territoriyada yashagan barcha qabilalarni va ularning tillarini juda puxta va mukammal aniqlashga muvaffaq bo‘ldi. Hatto u har bir so‘zning qaysi qabilaga tegishli ekanini, so‘zlarning qadimgi va hozirgi variantlarini, so‘zlarning ma’no va shakllariga doir xususiyatlarini, so‘zlarning ma’no va shakllariga moslik va farqlarni har tomonlama aniqlab chiqdi va nihoyat tartibga soldi” [2, 16].

Asar rus tiliga ikki marta tarjima qilingan. Birinchi marta akademik Alibek Rustamov tomonidan XX asrning 70-yillarida “Devonu lug‘otit turk”ning faksimile nusxasi asosida rus tiliga tarjima qilingan va Moskvaga yo‘llangan. Moskvadagi Sharq adabiyoti (Vostochnaya literatura) nashriyotida akademik A.N.Kononov rahbarligida professorlar: N.A.Baskakov, V.V.Reshetov va U.A.Potseluyevskiylardan iborat tahrir hay‘ati a‘zolari tashkil etiladi. 1980-yilda asar chop etishga tayyor holatga keltiriladi, lekin noma’lum sabablar bilan chop etilmaydi. Nihoyat, akademik A.Rustamovning rus tilidagi tarjimasini 1-jildi 2010-yilda Moskvada bosmadan chiqadi.

Mustaqil O‘zbekistonda uning rus tilidagi ikkinchi tarjima nashri 2017-2018-yillarda hozirlandi. Ushbu tarjima ham akademik, filologiya fanlari doktori, professor, til tarixi bilimdoni Alibek Rustamov tomonidan amalga oshirildi. Loyiha rahbari sifatida akademik, filologiya fanlari doktori, professor, qomusiy olim Azizxon Qayumov faoliyat ko‘rsatdi. Mas‘ul muharrir - filologiya fanlari doktori, professor Hamidillo Boltaboyev. Uch jilddan iborat ushbu asarni nashrga tayyorlashda filologiya fanlari doktorlari S.Hasanov, Sh.Hasanova; filologiya fanlari nomzodlari M.Rustamov, J.Jo‘rayev, S.Rustami, ilmiy xodim sifatida S.Mansurovlar ishtirok etishgan.

“Devonu lug‘otit turk” asari bilan ishlashni yanada qulaylashtirish maqsadida asarning indeks-lug‘ati 1967-yilda nashr etildi. Ushbu lug‘at S.Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan va 1960-1963-yillarda Toshkentda nashr etilgan “Devonu lug‘otit turk” hamda ushbu asarning Rifat tomonidan 1915-1917-yillarda Istanbulda nashr etilgan arabcha nusxalari asosida tuzildi. Uni nashrga tayyorlashda akademik G‘ani Abdurahmonov, professor Shamsiddin Shukurov, professor Qozoqboy Mahmudov, professor G‘ulom Karimov, ilmiy xodimlardan O‘.Mirzakarimova, M.Turobovalar faol ishtirok etishgan.

Shu o‘rinda “Devonu lug‘otit turk” asarining topilishi bilan bog‘liq ayrim fikrlarni berib o‘tmoqchimiz. Yosh o‘zbek olimi, O‘zbekiston xalq shoiri, yangi tashkil etilgan “Jadid” gazetasining bosh muharriri Iqbol Mirzo bu haqda shunday yozadi: “Manbaga ko‘ra, bir kuni Diyorbakirda yashovchi Ali Amiriy ismli tolei yorug‘ turk birodarimiz eski kitoblar sotiladigan sahhoflar bozoriga borib, o‘ziga ma’qul hech vaqo topmaganidan so‘ng do‘kondor Burhonbeydan biror yangi narsa bormi, deb so‘raydi. Sotuvchi bir kitob bor-u, biroq qimmat ekanini, hatto maorif vazirligining ham qo‘li kaltalik qilganini aytib, bitigni unga ko‘rsatadi. Ali Amiriy kitobni qo‘liga olishi bilan bu asar yagona qadimiy nusxa ekanini, asarning jahonshumul ahamiyatini darhol

tushunib yetadi. Hayajonini Burhonbeyga sezdirmasdan u bilan savdolashib, kitobni 33 liraga sotib oladi. Ali Amiriy shundan keyingi taassurotini maslakdoshlariga bunday hikoya qilgan edi: “Kitobni olib uyga keldim. Yeb-ichishni ham unutib, bir necha soat uning mutolaasi bilan mashg‘ul bo‘ldim. Do‘stlar, sizga bildiryapman. Bu kitob emas, Turkiston o‘lkasidir! Turkiston emas, jumlai jahondur! Turk tili bu kitob soyasida chinakam ravnaq topadi! Arab tili uchun Sebavayhiyning kitobi qanchalik muhim bo‘lsa, bu ham turk tili uchun shunchalik ahamiyatlidir. Hozirga qadar turk tilida buning kabi kitob yozilgani yo‘q. Bu kitobning haqiqiy bahosi aniqlanmoqchi bo‘lsa, jahonning xazinalari bunga teng kelolmas. Bu kitob bilan hazrati Yusuf orasida bir o‘xshashlik bor. Yusufning akalari uni arzimasa aqchaga sotdilar. Biroq uni Misrda o‘zining vaznicha keladigan javohirga pulladilar. Burhonbey bu kitobni menga 33 liraga sotdi. Men esa buni behisob olmoslarga, zumradlarga bermayman” [3, 147].

“Devon”ning topilishi katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Hatto uni Mojariston Fanlar akademiyasi o‘n ming oltin pulga sotib olishni taklif etdi. Fransuzlar “Devon”ni qo‘lga kiritish uchun quyuq va‘dalar berib ko‘rdi. Biroq millat manfaatini har qanday moddiy boylikdan ustun qo‘yadigan Ali Amiriy barcha takliflarni rad etdi. Shu tariqa “Devon” 1915–1917-yillari Istanbulda chop etildi. Keyinchalik ingliz, nemis, rus, turk, ozarbayjon, uyg‘ur va o‘zbek tillariga tarjima qilindi. Turkiyshunoslikda asar haqida ko‘plab tadqiqotlar yaratildi. Bu asarni ilmiy o‘rganish va ommalashtirishda o‘zbek olimlarining ham xizmati beqiyosdir.

Nemis sharqshunosi K. Brokkelman asarni 1928-yilda nemis tiliga tarjima qildi. “Devon” qo‘lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli; 1915–1917), keyinchalik Besim Atalay tomonidan (3 jildli; 1939–1941) turk tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. Turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957-yil amalga oshirildi” (3, 147). 2018-yil turk dunyosi madaniy hayotida katta bir voqelik bo‘ldi. Shu yili Prof. Dr. Ahmet B. Erjilasun hamda Prof. Dr. Ziyat Akkoyunlular tarafidan hozirlangan “Divanu Lugati't-Türk”ning turk tilidagi nashri e‘lon etildi. Unda bildirilgan quyidagi so‘zlar diqqatga molikdir: “Köktürk bengü taşlar, Divanu Lugati't-Türk ve Dede Korkut Kitabı Türk dilinin en önemli üç eseridir. Kendisini Türk bilen insan bu eserler hakkında asgari bilgiye sahip olmalıdır. Türklük bilimi üzerinde çalışan yerli ve yabancı bilim adamları da en çok bu kaynaklara başvururlar. Tartışılmaz önemleri dolayısıyla üç eser de Türklük bilimi dünyasında gereken ilgiyi görmüş, çeşitli dil ve lehçelerde defalarca yayımlanmış, üzerlerinde sayısız çalışma yapılmıştır” [27, 4].

Ko‘rib o‘tganimizdek, Mahmud Koshg‘ariyning mazkur asari har doim ham o‘zining bebaholigi bilan qimmatli bo‘lib kelgan. Bugun ham ushbu asar dunyo ilm-fani ko‘lamida keng o‘rganilmoqda. Kitobda keltirilgan ma‘lumotlar ajdodlarimizning X-XI asrlarga oid turmush tarzi, madaniy hayotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, asar turkiy tillarning tarixiy fonetikasi, grammatikasi va leksikasiga oid qimmatli ma‘lumotlarni o‘zida saqlab kelgan nodir manbadir. To‘g‘ri, turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida ko‘p sinoatlardan muvaffaqiyatli o‘ta oldi. U dunyo tillari ummoniga kelib quyilgunga qadar qayerdadir shovullab shiddat bilan oqdi, qayerdadir tarix yo‘lidagi dambaga duch kelib, shiddatini sekinlatdi, yana dambani oshib o‘tib, o‘z o‘zanida til ummoni sari intildi. Tilimizning bugunga qadar omon-esson kelishi va taraqqiy etishining asosiy boisi, birinchidan, xalqimizning o‘z ona tilini jonidan sevishi, asrab avaylashi, ardoqlashidadir. Zero, bu haqda bundan ming yil avval buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg‘ariy aytgan edilar: “Xudo davlat quyoshini turklar burjida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning hoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, ularni to‘g‘ri yo‘lda yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g‘olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning o‘qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti harakatlarini mahkam tutmoq har aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular til tufayli o‘z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar” [2, 43]. Mahmud Koshg‘ariy tomonidan bundan ming yil avval aytilgan mazkur fikrlardan ko‘rinib

turibdiki, xalqimiz azal-azaldan ona tilimizning muhibi, uni muqaddas bilib, ardoqlab kelgan. Xalqimizning ana shu xususiyatlari tufayli tilimiz tarixning barcha sinovlaridan eson-omon o‘tib, bugungi yorug‘ kunlarga yetib keldi. Millatimiz tabiatidagi ko‘p ming yillik til sevgisi, til e‘zozini bugun ham to‘liq kuzatishimiz mumkin.

Umuman, tarix haqidagi ma‘lumotlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi eng asosiy manba bu kitobdir. Har qanday kitob bu tarix haqidagi ma‘lumotlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi, moziy haqiqatlarini kelajakka eltuvchi, jamiyatdagi voqeliklar, ilm-fandagi yangilik va kashfiyotlarni o‘zida qayd etib boruvchi, makon va zamon bilmaydigan inson zakosining bebaho mahsullaridan biridir. Xalqimiz azal-azaldan kitob o‘qishga, u bilan oshno bo‘lishga intilib yashab kelgan. O‘zbek kitobi va uning yaratilishi, ya‘ni kitobatchilik tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Bu yo‘nalishda qilingan ilmiy tadqiqotlar buni to‘laligicha asoslaydi. Kitobatchilik o‘tmishini o‘rganish aynan shu sohaga oid terminlar tarixini tadqiq etish bilan hamohanglik kasb etadi. Chunki har qaysi sohaning tarixi yoki uning rivojlanish bosqichlari in‘ikosi uning so‘zlarida, terminlarida namoyon bo‘ladi. Albatta, bunday ijtimoiy hodisalarning asosiy manbalari o‘sha davrga oid yozma manbalar sanaladi. Shu bois o‘zbek kitobatchilik terminologiyasining shakllanish bosqichidagi yetakchi manbalardan biri sifatida “Devonu lug‘otit turk” asarining dunyoga kelishi muhim voqelik sanaladi. Asarni sahifalar ekanmiz, unda kitobatchilik bilan bog‘liq bir qancha terminlarni uchratamiz. Asarda so‘zlarga berilgan tahliliy izohlar terminlar etimologiyasi bilan bog‘liq ayrim bahsli munozaralarga yechim topib berishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ana shunday terminlardan biri *bitik* (بکتیک) terminidir.

Shu o‘rinda asli turkiy so‘z bo‘lgan *bitik* terminining etimologiyasi xususida qisqa to‘xtab o‘tishni lozim topdik. *Bitik* terminining kelib chiqishi haqida tadqiqotchi olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Eski o‘zbekchada faol, hozirda kam bo‘lsa-da, iste‘molda bo‘lgan “yozuv”, “kitob”, “xat” ma‘nolarini ifodalovchi *bitik* terminining bitmoq fe‘lidan yasalganligi hammamizga yaxshi ma‘lum. Bu haqda turkshunos olim E.V.Sevortyan o‘zining «Etimologicheskii slovar tyurkskix yazikov» nomli kitobida atroflicha to‘xtalib o‘tgan [4, 156]. Unda *bit*//*biti* fe‘llarining etimologiyasiga oid turli ko‘rinishdagi fikr va farazlar berilgan. Lug‘atda *biti* fe‘lining quyidagi ma‘nolari bayon qilinadi:

- 1) yozmoq; yozuvni kesib olmoq; yozib olmoq;
- 2) yozib olmoq, ko‘chirib olmoq; nusxa ko‘chirmoq;
- 3) chizmoq, rasm solmoq;
- 4) tuzmoq;
- 5) taqdirni aniqlamoq.

Bizningcha, yozmoq, yozuvni kesib olmoq, yozib olmoq kabilar *biti* so‘zining eng dastlabki ma‘nolari bo‘lishi kerak [4, 156]. Bu haqda “Drevnetyurkskiy slovar”da ham aytib o‘tilgan [5, 103]. XIII-XIV asrlarga oid “Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya”da ham *bitik* leksemasi “kitob” va “o‘simlik” ma‘nolarini ifodalashi ko‘rsatib o‘tilgan [6, 185]. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk”da *biti* bilan bo‘liq yana bir ma‘nosi berilgan: “*biti* - osmondan nozil bo‘lgan kitoblar: tavrot, injil, zabur, qur‘onlardan birisi” [7, 236]. Matnda keltirilgan to‘rtinchi va beshinchi ma‘nolar *bitik* terminining diniy ahamiyatdagi “tumor” ma‘nosiga yaqindir. Ba‘zi olimlarga ko‘ra turkiy *biti* xitoycha “pi < piet” – mo‘yqalam (tush bilan yozishga mo‘ljallangan mo‘yqalam) so‘zidan yasalgan. Ayni shunday fikr “Drevnetyurkskiy slovar”da ham aytilgan [5, 103]. Ushbu lug‘atda V. Bang tomonidan berilgan *bitining* quyidagi ko‘rinishdagi morfologik tarkibi ko‘rsatib o‘tiladi: “biti = bit + i”; bu yerda “i” fe‘l yasovchi qo‘shimchadir” [4, 156]. V.Bangning bu fikri, albatta, munozarali. Chunki “bit” fe‘lining “bi” (keskir qurol, pichoq) ot shaklidan yasalganligi haqidagi fikrlar ham bor. Keyinchalik *bitining* xitoy tilidan o‘zlashganligiga oid taxminlarni M.Resenen hamda J.Klosonlar ham ma‘qullaydilar. E.Sevortyaning ta‘kidlashicha, taklif qilingan ushbu etimologik fikrlar kamchiliklardan xoli emas. Chunki qadimgi turkiy manbalarda ot ko‘rinishidagi *pi* – *piet* qayd etilmagan. Shu bois bo‘lsa kerak, M. Resenen, ayni zamonda, xitoycha *piet* aynan *biti* uchun asos ekanligiga shubha bilan qaraydi. Ba‘zi olimlar turkcha *biti* toxarcha *pide* (u yozdi) va *pidaka* (hujjat, yorliq) bilan o‘xshashligi borligi haqida fikr bildiradilar [4, 156]. G.fon

der Gabelens turkcha *biti* soʻzini hind-yevropa manbalariga oid boʻlgan yunoncha *pittahioy* bilan ham bogʻlaydi [4, 156]. Bu fikrni keyinchalik Ye.Polivanov ham qoʻllab-quvvatlaydi, lekin uning fikricha, *bičik* < *bitik* xitoy tilidan dastlab moʻgʻulchaga, soʻngra esa, moʻgʻul tili vositasida turkiy tilga oʻzlashgan [4, 156; 23, 118]. Ye.Polivanov oʻz tadqiqotida turkiy tillarga xos boʻlgan *bitmoq* hamda *yozmoq* feʼllari haqida soʻz yuritib, *bitmoq* feʼli, asosan, sharqiy hududlarda yashovchi turkiy xalqlarga, xususan, oʻzbeklarga, *yozmoq* feʼli esa, koʻproq gʻarbiydagilarga - usmonli turklari va tatarlarga xosligini aytadi [23, 118]. Ye.Polivanov fikrining tasdigʻi sifatida turk tilidagi *bitmek* feʼlining tarixda hamda hozirgi kunimizdagi maʼno anglatishi bilan qiziqib koʻrdik. «Turk tilining etimologik lugʻati»da *bitgi* soʻziga quyidagicha izoh berilgan: «Turkcha *bitimek* (yazmak) soʻzidan *bit-gi* → *bitgi* (yozma boʻlgan, yozilgan, arabcha kitap). Bu yerda til nuqtayi nazaridan ahamiyat berilishi kerak boʻlgan muhim bir jihat bor: *biti*, *bitig* soʻzlari Osiyo turkchasida kitob, maktub maʼnolarini ifodalaydi. Holbuki, Anadoʻli xalq tilida esa, «oʻsib (koʻpayib) ketmoq, urchimoq, tarqalmoq, yetishmoq, mahsulot holiga kelmoq» maʼnolarini ifodalovchi *bitmek* feʼli qadimgi turk tilida «yazmak» maʼnosida qoʻllangan *bitimek* bilan maʼnodosh boʻlgan va undan *bitg(k)i* (kitap) soʻzi yasalgan. *Bitki* (arabcha nebat) xalq tilida (shevada) *bitgi* shaklida ham talaffuz qilinadi, ammo bu yerda *bitgi* butunlay boshqa maʼno – kitap maʼnosini anglatmoqda» [24, 93]. *Bitgi* leksemasi hozirgi turk tilida qadimgi turk tilida anglatgan maʼnolaridan bironasini ham ifodalamaydi. Uning hozirgi shakli *bitki* boʻlib, quyidagi maʼnoda ishlatiladi: «(Botanikaga oid) Tushgan yerida ildiz otib, hosil beruvchi, soʻngra esa, qurib ado boʻluvchi oʻt-maysa yoki daraxt kabi oʻsimliklarning umumiy nomi, nabotot. «Bitki bitleri» - oʻcimlik (bitki)larda yashovchi daraxt biti kabi oʻsimlik hasharotlarining umumiy nomi va hokazo» [25, 201]. Ushbu izohdan koʻrinadiki, qadimgi turk tilida faol qoʻllanishda boʻlgan *bitgi/bitki* soʻzi hozirgi turkchada butunlay boshqa maʼno ifodalaydi. Uning qadimgi *bitgi* (kitob) maʼnosini bugungi turk tilida arab tilidan oʻzlashgan *kitap* leksemasi ifodalamoqda. «Türk Dilinin Etimoloji Sözlüğü»da *bitik/bitig* termini umuman uchramaydi. Uni faqat hozirgi turk tilining izohli lugʻatidagina uchratishimiz mumkin. Lekin bu lugʻatda ham uning butunlay boshqa maʼnolarni ifodalab kelishini koʻramiz: «Bitik: 1. Charchoq yoki ogʻir kasallikdan keyingi holsizlik, majolsizlik. 2. Holati yomon, rohatsizlik» [25, 200].

Turk tilida *bitmek* (bitmoq) feʼli anglatgan maʼnolarning baʼzilari oʻzbekchadagi *bitmoq* feʼli ifodalagan maʼnolarga ancha yaqin. Masalan: «bitmek:

1. Tamom boʻlmoq, soʻnggiga, oxiriga yetmoq.
2. Barham topmoq, yoʻq boʻlmoq.
3. Oʻsib unmoq, hosil bermoq, yetishmoq» [25, 201].

Ushbu holatlar turk tilidagi *bitmek* feʼlining *yozmoq* maʼnosida umuman qoʻllanmaganligini, bu esa, Ye.Polivanov fikrining toʻgʻri ekanligini asoslaydi.

Oʻylash mumkinki, balki, oltoycha *bichi* moʻgʻul tilidan dastlabki turkiy *bitini* siqib chiqargan boʻlishi ham mumkin» [4, 157]. Shuningdek, *bit//biti* feʼlidan ish-harakatning natijasini ifodalovchi umumturkiy *bitik* ~ *bitig* ot shakli yasalgan boʻlib, u quyidagi maʼnolarni anglatgan:

- 1) xat, maktub;
- 2) kitob;
- 3) hujjat;
- 4) nimadir yozilgan manba yoki narsa);
- 5) tumor;
- 6) harflar va hokazo [8, 22-33].

Professor A.K.Borovkov ham *bitik* leksemasining «yozuv, xat» maʼnolarida kelishini va uni uygʻurcha arxaik soʻz sifatida izohlaydi [26, 101].

Demak, *bitik* ~ *bitig* termini etimologiyasi haqida turlicha qarashlar mavjud. Shu oʻrinda yana bir taxmin ham tugʻiladi: qadimda, xususan, oʻrxun-yenisey bitiklari toshlarga keskir qurollar yordamida oʻyib yozilgani maʼlum. Shunga koʻra asli turkiy soʻz boʻlgan *bi* ot shaklining qadimgi turkiy tilda pichoq, tigʻ, keskir asbob, qurol maʼnolarini anglatganini inobatga olgan holda *bit* feʼlining asli turkiy *bi* otiga *t* - otdan feʼl yasovchi affiks qoʻshilishi natijasida yasalgan soʻz sifatida qabul qilishimiz mumkin. Turkiy tillarda feʼl asosga – *q/- k // - gʻ| -g* affiksi qoʻshilishi natijasida

ish-harakatning natijasini yoki fe‘ldan anglashilgan harakat jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan narsa, predmetlarning nomini anglatuvchi ot yasalishi mavjud holat. Bunda ushbu affiks «undosha bilan tugagan fe‘llarga qo‘shilganda affiks oldidan unli orttiriladi: *bich+aq, qorq+ug‘, sat+iq (sat+ig‘)* kabi» yoki *qaymoq* → *qayiq, bo‘g‘moq* → *bo‘g‘iq, to‘shamoq* → *to‘shak, elamoq* → *elak* va h.z.. Bu esa, o‘z navbatida, *bitik* ~ *bitig* leksemasining, *pichoq* // *bichaq* so‘zi singari, asli turkiy *bi* so‘zi bilan bog‘lagan holda, qadimgi turkiy tilda *bi+t+(i)k* shaklida yasalgan, degan xulosaga kelishimizga asos bo‘la oladi.

“Devonu lug‘otit turk”da *bitik* so‘zining uch ma‘nosi qayd qilingan:

1. Kitob.

2. Yozuv (xat): “аниъ bitigi belgylük – uning yozuvi ma‘lum, belgilik”;

3. Tumor (o‘g‘uzcha) [9, 365-366]: “ol bitik juldı – u kitobni ko‘chirib yozdi” [7, 71]; “ol bitik juzsadi – u xatni o‘chirmoq istadi” [7,319]; “ol bitik tamg‘aladi – u xatga, kitobga xon tamg‘asini urdi” [7, 364]; “Men аъар bitik jutturdum – men unga xatni o‘chirtirdim” [7, 103]. O‘rta asrlarda tumor termini “buklab o‘ralgan noma; o‘rama qog‘oz; xat; yirik yozilgan har qanday yozuv; duo yozilgan qog‘oz” kabi ma‘nolarni ifodalab kelgan [10, 616; 11, 119].

“Devonu lug‘atit turk”da *bitmoq* fe‘ldan yasalgan yana boshqa terminlarni ham ko‘rishimiz mumkin: “*bitigu* - turklar va boshqalarning siyohdoni” [7, 189]; “*bitiklik er* – yozuv egasi (yozuvni biladigan kishi) ma‘nosida” [9, 468]; “*bitiklik neq* – bitishga mo‘ljallangan, ustiga yoziladigan narsa” [9, 468]; “*bitik bititguchi* - xat bituvchi. O‘g‘uz va qipchoqlarda bu shakl *bititdächi* shaklida qo‘llanadi” [9, 369], *aj bitigi* – askarlarning nomi va ozig‘i yozilgan daftar [9, 76].

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham *bitig* termini ko‘p miqdorda uchraydi. U ko‘proq “maktub” ma‘nosida kelgan: “3803. Elig ma yana bir bitig bersyni, Oqisun bitigni mena bytsyni. Ya‘ni: Elig ham yana bir maktub bersin, (U) maktubni o‘qisin, menga ishonsin” [12, 590].

Bulardan tashqari, “Qutadg‘u bilig”da “vasiyatnoma, pandnoma va nasihatnoma” ma‘nolarida birikma shaklidagi *qumaru bitig* termini ishlatilgan: “Aytoldi eligkä qumaru bitig qodmishin ayur. Ya‘ni: Oyto‘ldi eligga nasihatnoma yozib qoldirishini aytadi” [12, 248]. Ushbu termin tarkibidagi *qumaru* so‘zi qadimgi turkiy tilda “vasiyat; pand-nasihat, o‘git” ma‘nolarini ifodalagan [5, 465]. Asarda Yusuf Xos Hojib birikma shaklidagi *qag‘az bitig* terminidan ham foydalanadi. Bu termin “yozuv qog‘ozini” ifodalaydi: “1327. Bitigynlä aldi bu qag‘az bitig, Bayat ati birlä bitidi bitig. Ya‘ni: Siyohdon bilan yozuv qog‘ozini oldi, Xudo nomi bilan (ya‘ni bismillo deb) xat yozishga kirishdi” [2, 248-249].

Bitig terminining “xat, maktub, noma” ma‘nolarida qo‘llanilishini Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham ko‘ramiz: “...Bag‘dod xalifasi Xorun ar-Rashid bir yil Bag‘dod bo‘zunig‘a oshliq berib jumlasin sotqun oldi, qulluq bitigin berdi” [13, 165].

XII-XIV asrlarga oid qo‘lyozma manbalarda *bitig* termini “hujjat” ma‘nosini ham anglatib keladi: “torqu janut bitig bertimiz – – в замен шелка мы дали документ” [5, 233]; “son bitig ucrasar vucun bolup jorimasun – если затем (снова) найдется документ, пусть не будет в обращении знаменительная квитанция” [5, 604]. Alisher Navoiy asarlarida *bitik* termini ko‘proq “maktub”, “xat”, “yozuv” ma‘nolarida kelgan: “...humoyun bitikkim, inoyat qilib, falondin yiborib erdingiz– yetishti” [14, 111]; “...axtachidin inoyat qilib yiborgan og‘zi muhrluq bitikni o‘qub, javob olguncha, axtachi oshuqub ketgan ermish” [14, 113]. “Badoi ul-lug‘at”da ham *bitik* so‘zining, asosan, “maktub”, shuningdek, “umuman, yozilgan narsalar”ga nisbatan qo‘llangani ta‘kidlanadi [15, 144].

Tahlillarga ko‘ra, taxminan XVI-XVII asrlardan e‘tiboran *bitik* mustaqil termin sifatida iste‘moldan chiqib, uning “noma”, “maktub”, “yozuv” ma‘nolari o‘rnida arab va fors-tojik tillaridan o‘zlashgan *xat, kitobat, kitob, noma* kabi terminlar manbalarda faol qo‘llana boshlandi.

Mahmud Koshg‘ariy “shoh maktublarini turk xati bilan yozuvchi kotib”ni *alimg‘a* (اغملّا) deb atalganligini yozadi [9, 161]. “Ushbu so‘z “Qutadg‘u bilig”ning Hirot nusxasida *alimg‘a*,

Namangan nusxasida esa, *iling'a* shaklida uchraydi» [16, 18]. “Qayusi su bashi qayusi hajib, Qayusi ilimg'a bolur sez achib. Ya'ni: Ba'zisi lashkar boshi, ba'zisi hojib, Ba'zisi so'z (ma'nisini) ochib sarkotib (bo'ladi)” [12, 612]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida *iling'a* termini, asosan, “kotib” ma'nosida uchraydi: “θgdulmish eligkâ bitikchi ilimg'a neky-teg kerâkin aytur. Ya'ni: O'gdulmish eligga xat yozuvchi kotib qanday (bo'lishi) kerakligini aytadi” [12, 428]. Ushbu matnda Yusuf Xos Hojib “xat yozuvchi kotib” ma'nosida ikki komponentdan iborat birikma shaklidagi *bitikchi ilimg'a* terminini qo'llaganini ham ko'ramiz. Asarda Yusuf Xos Hojib kotibni *bitikchi* deb ham ataydi.

Qadimgi ko'pgina yozma manbalarda *juzvdon* (جزودان) termini “qog'oz va yozuvlar, hali muqovaga olinmagan qo'lyozma varaqlari solinadigan charmdan ishlangan papka” ma'nosida ishlatilgan. Mahmud Koshg'ariyda esa ayni shu ma'noda *kyisyjgä* (اكرسك) so'zi qo'llangan [9, 452].

“Yozish uchun siyoh solinadigan idish” ma'nosida arabcha *davot* (تادو) termini qo'llangani ko'pchiligimizga yaxshi ma'lum. Qadimgi turkiy tilda *davot* termini o'rnida asli turkiy til negizida yasalgan *bitigu* termini qo'llanadi [5, 104]. *Bitigu* termini haqida Mahmud Qoshg'ariy “Devon”da quyidagicha ma'lumot beradi: “*Bitigu* – turklar va boshqalarning siyohdoni” [9, 189]. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarida arabcha *davot* bilan birga turkiy *bitigu* terminlarini aralash qo'llaydi: “Bitigunlä aldi bu kag'az bitig, Bayat ati birlä bitidi bitig. Ya'ni: Siyohdon bilan yozuv qog'ozi oldi, Xudo nomi bilan (ya'ni bismillo deb) xat yozishga kirishdi” [12, 248].

Bitigu termini Alisher Navoiy yoki Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida deyarli uchramaydi. Uning o'rnida, asosan, arabcha *davot* termini qo'llangan: “Layli tilabon davotu xoma, Filhol muharrar etti noma” [17, 22]; “Chun qildim adoyi farzi bori, Qo'l bordi davotu xoma sori” [17, 22]; “Chu raxshi ikinchiga urdi g'adam, Atoridg'a sindi davotu qalam” [18, 27]; “Hajr dudidin qaro bo'lg'on ko'ngul ichra o'qung, Sharhi holim yozg'ali bo'lmish qalam birla davot” [19, 47]; “Mullo Bihishtiydin Hindolg'a murassa' kamar va xanjar va murassa' davot va sadafkorlik sandali va kiygan nimcha va tagband va “Boburiy xat”ning mufradotini yiborildi” [20, 328]. Demak, bu tarixiy manbalarga suyangan holda, taxminan, XV-XVI asrlardan e'tiboran “siyohdon” ma'nosida iste'molda bo'lib kelgan turkiy *bitigu* o'rnini arab tilidan o'zlashgan *davot* termini egallay boshlagan, degan xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, turkiy xalqlar yozuvi tarixida uyg'ur yozuvining o'ziga xos o'rni bor. Asosini sug'd xatidan va suryoniy yozuvining ta'siri ostida paydo bo'lgan *turkiy yozuv*, hozirda *uyg'ur yozuvi* deb atalayotgan xat o'tmishda *uyg'ur xati*, *mo'g'ul xati* kabi nomlar bilan yuritilgan. “Uyg'urlar dastlab Mo'g'ulistonda yashaganlar va shamanizm dinida bo'lganlar. Keyinroq esa (762 yilda) uyg'urlar o'rtasida moniylik dini keng tarqaladi. Undan keyin ular musulmonlikni qabul qiladilar. Shuning uchun ham uyg'ur yozuvidagi yodgorliklarning aksariyati (ko'proq tarjima asarlar) diniy xarakterda bo'lib, buddizm, moniylik va islom aqidalarini aks ettiradi. Uyg'ur yozuvidagi eng qadimgi yodgorliklar VII–IX asrlarga oid deb taxmin qilinadi. Qadimgi uyg'ur alfaviti XVIII asrning boshlarigacha ham qo'llanishda davom etgan, hatto “sariq uyg'urlar” deb ataluvchi etnik gruppaga XIX asrda ham shu yozuvdan foydalanilgan” [21, 47]. Shu o'rinda aytish lozimki, bu yozuv turi, asosan, vertikal holatda yozishga mo'ljallangan va u yuqoridan pastga qarab yozilgan. Ushbu yozuv turini “Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'atit turk” asarida *turkcha yozuv* deb tilga oladi. Alisher Navoiy o'z maktublarining birida uni *turkcha xat* deb ataydi. XIII asr fors she'riyatining namoyandasi Puri Baho'i Jomiy o'z she'rlaridan birida uni *uyg'ur xati* (*xatt-i uyg'uri*), mashhur tarixchi Ibn Arabshoh “Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur” nomli asarida *uyg'ur xati*, “Fokihatu-l-xulafu” asarida esa *mo'g'ul xati* deb ataydi. Ushbu yozuv “Hibatu-l-haqoyiq”ning 1480 yili Istanbulda Abdulrazzoq baxshi ko'chirgan qo'lyozmasida *mo'g'ul xati* deyilgan” [22, 117].

Buyuk alloma Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari shaxsan mening hayotimdagi bir muammoga ham yechim topib berdi. Men ulg'aygunga qadar yoki maktabni bitirib, Toshkentga o'qishga kelgunga qadar “cho'milmoq” fe'lini so'zlashuv tilimizda ishlatmaganmiz. Uning o'rnida har doim “ho'pitmoq” so'zini qo'llaganmiz. Bolalik davrimizda ham biz “ho'pitishga borar edik. Soatlab ho'pitar edik, to badanimiz rangi o'zgartirguncha ...” Yaqin-yaqingacha, nega

ho‘pitmoq degan ekanmiz, deb ko‘p o‘yladim. Bu so‘zning cho‘milishga qanday aloqasi bo‘lgan ekanki, biz tomonlarda (Qo‘qon atrofida) *ho‘pitmoq* qo‘llangan, deb o‘zimga o‘zim ko‘p marta savol berdim. O‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan har ikki izohli lug‘atni ham, imlo lug‘atlarini ham qaradim, afsuski, bu so‘zning o‘zi ham, izohi ham lug‘atlarda uchramaydi. Hamma joyda “cho‘milmoq”. Yaqinda bu savolga javob topdim, javobni Mahmud Koshg‘ariy hazratlari berishdi. Men mehnat faoliyatimda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga ko‘p marotaba murojaat qilganman. (Ushbu kitobning uch jildi hamda “Indeksi”ni ustozim, pedagogika fanlari doktori, professor Munavvar Xodjayevna To‘xtaxodjayeva hadya qilgan edilar. Opadan bir umr minnatdorman). Ilgarilari yaxshi e‘tibor bermagan ekanmanmi, yaqinda juda katta boylik topib olgandek sevinib ketdim. Sababi – “Devonu lug‘otit turk”ning 1-jildiga tarjimon va nashrga tayyorlovchi sifatida filologiya fanlari doktori S.Mutallibov tomonidan “XI asrning buyuk filologlari va ularning noyob asarlari” deb nomlangan kirish so‘zida *ho‘pitmoq* so‘zi haqidagi ma‘lumotni o‘qib qoldim. Unda shunday so‘zlar bitilgan: “Mahmud Koshg‘ariy til faktlari ustida uzoq va chidamli tekshirish natijasida tilda harf tushish, almashinish, singish kabi qoida borligini birinchi marta aniqladi, bu masalalarda qoidalar tuzdi va o‘z asarida, o‘rni kelganda, bu xususiyatlarni ko‘rsata bordi. Tilda fonetik qoidalar til taraqqiyoti qoidasiga muvofiq turli o‘zgarishlarga uchragan so‘zlar tarixini o‘rganish, so‘z etimologiyasini aniqlashda benihoya muhimdir. Masalan, *ho‘plab ichmoq* ma‘nosidagi so‘zning Qo‘qon shevasidagina *ho‘pitmoq* – *cho‘milmoq* so‘zida qolganini ko‘ramiz, xolos. Shu holda bu so‘zning etimologiyasini tovush o‘zgarish qoidasi asosidagina aniqlash mumkin. “Devonu lug‘otit turk”da o‘pmoq so‘zining ikki ma‘nosi bo‘lgani izohlangan:

1 – o‘pmoq (III t., 143-b.).

2 – ichmoq (III t., 87-b.).

Lekin bu so‘zning ikkinchi ma‘nosi iste‘moldan chiqqan. Ko‘pdan bizda faqat birinchi ma‘nodagina qo‘llanadi. Bu so‘zning ikkinchi ma‘nosi faqat *ho‘plamoq*, *ho‘pitmoq* so‘zlaridagina saqlanib qolgan, demak, *ho‘plamoq* so‘zining asli *o‘plamoqdir*. Bizgacha so‘z oldiga bir harf orttirilgan formada o‘zgarib yetib kelgan. Mahmud Koshg‘ariy yozganidek, “... h tovushi hind xalqi bilan aralashish natijasida tilga kirgan tovushdir” [2, 22]. Shunda men ikkinchi savolga ham javob oldim: bu ma‘lumotlar o‘zbek tilidagi *hovuch*, *hovli*, *ho‘kiz* kabi so‘zlar nega turk tilida “h” tovushsiz, ya‘ni *avuc*, *avlu*, *okuz* kabi shakllarda yoziladi va talaffuz qilinadi, degan masalaga oydinlik kiritdi.

Demak, Mahmud Koshg‘ariydan turkiy xalqlarga ilmiy meros bo‘lib qolgan “Devonu lug‘otit turk” asari nafaqat tarixan, balki zamonaviy nuqtayi nazardan ham muhim manba sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Kunlar, yillar, asrlar o‘tgan sayin ushbu asarning qiymati ortib boraveradi. Dunyo xalqlari undan doimo bahramand bo‘lib, Koshg‘ariydek buyuk alolomalar merosi oldida ta‘zimda bo‘ladilar.

ADABIYOT

1. Махмуд Кошғари. Девону луғоти-т-турк. Свод тюркских слов. В трех томах. Т.1. – Ташкент: “Mumtoz so‘z” nashriyoti, 2017. –429 с.
2. Муталлибов С. XI асрнинг буюк филологлари ва уларнинг ноёб асарлари// Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1960. –Б.7-39.
3. Иқбол Мирзо. “Девону луғотит турк” асарининг халқаро миқёсда ўрганилиши// Шарк юлдузи, 2018. –№8. – Б. 147-149.
4. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – Москва: Наука, 1978. – 350 с.
5. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – 676 с.
6. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – 280 с.
7. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч жилдли. 3-ж. – Тошкент: Фан, 1963. – 463 б.

8. Йўлдошев И. Ўзбек китобат санъати ва терминологияси. – Тошкент: TURON-IQBOL, 2018. –287 б.
9. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. Уч жилдли. 1-ж. – Тошкент: Фан, 1960. – 499 с.
10. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.
11. Казиев А.Ю. Художественно-технические материалы и терминология средневековой книжной живописи, каллиграфии и переплётного искусства. - Баку, 1966. – 132 с.
12. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – 964 б.
13. Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
14. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 13-ж. Муншаот. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1966. – 243 б.
15. Боровков А.К. Бадаи ал-лугат: Словарь Тали Имани Гератского. – Москва: Изд-во Восточной литературы, 1961. – 265 с.
16. Содиқов Қ.Уйғур ёзуви тарихи. –Тошкент: Маънавият, 1997. – 96 б.
17. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 8-ж. Лайли ва Мажнун. –Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965.– 264 б.
18. Алишер Навоий. Асарлар. Йигирма жилдли. 11-ж. Садди Искандарий. -Т.: Фан, 1993. – 640 б.
19. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 2-ж. Наводируш-шабоб. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963. – 426 б.
20. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. –336 б.
21. Маҳмудов Н. Ёзув тарихидан қисқача луғат-маълумотнома. –Тошкент: Фан, 1990. –56 б.
22. Содиқов Қ. Туркий матннавислик тарихидан // Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Тошкент: Ёзувчи, 2000. – Б. 117-202.
23. Поливанов Е. Далневосточные термины орудий письма//Сб.Туркестанского восточного института в честь проф.А.Э.Шмидта. – Ташкент, 1922. – С.116-119.
24. İsmet Zeki Eyuboğlu. Türk Dilinin Etimoloji Sözlüğü. – İstanbul: Sosyal Yayınlar, 1995. – 782 s.
25. Türkçe Sözlük. 1.C. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi, 1988. – 745 s.
26. Боровков А.К. Алишер Навоий как основоположник узбекского литературного языка//Алишер Навои. - М., - Л., 1946. – С. 92-120.
27. Kaşgarlı Mahmud. Divanu Lugati't-Türk. Hazırlayanlar: Ahmet B. Erjilasun – Ziyat Akkoyunlu. 3.Baskı. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2018. – 996 s.

Рәуҗи:

Ә.Нәvai ad. Daşkənd özbək dili və ədəbiyyatı universiteti
f.e.d., prof. Saodat Muhammedova